

**PROFESSIONAL TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.05/29.12.2023. Ped 48.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

**RAVSHANOV BEXRUZ XASANOVICH**

**KASBIY TA'LIM TASHKILOTLARIDA SOG'LOM TURMUSH TARZI  
VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR UYG'UNLIGI ORQALI KASBIY  
KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH METODIKASI**

**13.00.05 – Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

UO‘K: 377.091.3:796:004

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on pedagogical sciences**

**Ravshanov Bexruz Xasanovich**

Kasbiy ta’lim tashkilotlarida sog‘lom turmush tarzi va raqamli texnologiyalar uyg‘unligi orqali kasbiy kompetensiyani rivojlantirish metodikasi.....3

**Равшанов Бехруз Хасанович**

Методика развития профессиональной компетенции в организациях профессионального образования через гармонию здорового образа жизни и цифровых технологий.....23

**Ravshanov Bekhruz Khasanovich**

Methodology for developing professional competence in vocational education institutions through the harmony of a healthy lifestyle and digital technologies. ....47

**E’lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....52

**PROFESSIONAL TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.05/29.12.2023. Ped 48.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

**RAVSHANOV BEXRUZ XASANOVICH**

**KASBIY TA'LIM TASHKILOTLARIDA SOG'LOM TURMUSH TARZI  
VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR UYG'UNLIGI ORQALI KASBIY  
KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH METODIKASI**

**13.00.05 – Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PHD/Ped4649 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiyasi Buxoro davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (<http://ipitvet.uz>) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Ximmataliyev Do'stnazar Omonovich**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Hamidov Jalil Abdurasulovich**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Ma'murov Bahodir Baxshulloyevich**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Qarshi davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Professional ta'limni rivojlantirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/29.12.2023.Ped.48.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil "16" 10 soat 14<sup>30</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100095, Toshkent shahar, Ziyo ko'chasi, 76-uy. Tel.: (99871) 246-92-17, faks: (99871) 246-90-37, e-mail: [pedagogikinnovatsiyalar@edu.uz](mailto:pedagogikinnovatsiyalar@edu.uz))

Dissertatsiya bilan Professional ta'limni rivojlantirish institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (129 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100095, Toshkent shahar, Olmazor tumani, Chimboy 2, 96-uy. Tel.: (+99871) 246-92-17, faks: (+99871) 246-92-17).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "02" 10 kuni tarqatildi.  
(2025 yil "02" 10 dagi 19 - raqamli reestr bayonnomasi).



**R.X.Djurayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, p.f.d., professor, akademik

**S.Yu.Ashurova**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, p.f.d., (DSc), professor

**H.Sh.Kadirov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar rasi, p.f.d., (DSc), professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda ta'lim sohasining zamonaviy bosqichda jadal rivojlanib borayotgani kasbiy ta'lim mazmunini yangilash, o'quvchilarning sog'lom turmush tarzini shakllantirish va raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga samarali integratsiya qilish orqali kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Xususan, zamonaviy mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassisni tayyorlash nafaqat kasbiy bilim va ko'nikmalarga, balki jismoniy va psixologik sog'lomlik, sog'lom turmush tarzini yuritish, shuningdek, raqamli savodxonlik darajasiga ham bevosita bog'liq bo'lmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) barcha sohalarga, jumladan, ta'limga chuqur kirib borishi kasbiy ta'lim tashkilotlari (KTT) oldiga yangi vazifalarni qo'ymoqda. Bugungi kunda KTT o'quvchilarni nafaqat o'z kasbining yetuk bilimdoni, balki o'z hayotida AKT vositalaridan maqsadli foydalanadigan sog'lom fikrli, mustaqil qaror qabul qiluvchi va zamonaviy texnologiyalarni puxta o'zlashtirgan shaxs sifatida shakllantirish zaruriyati dolzarb masalaga aylanmoqda. Shu munosabat bilan, kasbiy ta'limda sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish bilan bir qatorda, raqamli texnologiyalar asosida o'quvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuvlar, pedagogik texnologiyalar, o'quv-uslubiy materiallar va raqamli resurslar majmuini ishlab chiqish va tatbiq etish ta'lim tizimining muhim yo'nalishiga aylangan.

Dunyo miqyosida professional ta'lim muassasalari o'quvchilarining sog'lom turmush tarzini shakllantirish, jismoniy faollikni ta'minlash, psixologik barqarorlikni rivojlantirish va raqamli kompetensiyalarni mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Chunki zamonaviy sharoitda sog'lom turmush tarzi nafaqat shaxsiy hayot sifatini oshirish, balki kasbiy faoliyat samaradorligini ham belgilovchi muhim omilga aylanmoqda. Shu sababli ko'plab mamlakatlarda ta'lim jarayonida sport mashg'ulotlari, psixologik treninglar, sog'lom ovqatlanish madaniyatini targ'ib qilish, shuningdek, raqamli ta'lim resurslari orqali individual rivojlanishni qo'llab-quvvatlash tizimli tarzda yo'lga qo'yilgan.

Respublikamizda ta'lim tizimini yangilash, zamonaviy texnologiyalarning taraqqiy etishi ta'lim mazmuniga innovatsion o'zgartirishlar kiritish uchun "Ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirish" muhim vazifa sifatida qaralmoqda.

Ta'limni axborotlashtirish jarayoni, ayniqsa, kasbiy ta'lim tashkilotlarida zamonaviy ta'lim vositalari, masofaviy o'qitish platformalari, raqamli simulyatorlar, sog'lom turmush tarzini targ'ib qiluvchi virtual interaktiv kontentlar yordamida o'quvchilarning tanqidiy fikrlash, muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish, axborot bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga o'qituvchi (o'qituvchi, murabbiy va boshqalar) va o'quvchi (o'quvchi, sportchi) o'rtasida masofaviy ta'lim sharoitida axborot faoliyatini va axborot o'zaro aloqasini amalga oshirish, elektron ta'lim resurslarining, shu jumladan tarqatilgan internet-resursning mazmuni va uslubiy

ahamiyatini baholash, jismoniy tarbiyani o'qitishning o'ziga xosligi va turli sport turlarining xususiyatlarini hisobga olgan holda ixtisoslashtirilgan ma'lumotlar bazalarini shakllantirish, o'quvchilar va sportchilarning jismoniy hamda psixologik holatini nazorat qilish masalalari bilan bir qatorda, ularning sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ya'ni muntazam jismoniy faollikni ta'minlash ham dolzarb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktabrdagi "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-158-sonli Farmoni, 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi PF-60-sonli Farmoni, 2020-yil 30-oktabrdagi "Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-6099-sonli Farmoni, 2020-yil 6-oktabrdagi "Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4851-sonli Qarori, 2020-yil 6-noyabrdagi Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida PQ-4884-sonli Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar tadqiqotning metodologik asosi sifatida xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining 1. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, xuquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovasion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Bo'lajak mutaxassislarni kasbiy tayyorlash hamda zamonaviy axborot texnologiyalarni sohada qo'llash muammosi bo'yicha xorijiy mamlakatlar va vatanimiz olimlari tomonidan ko'plab tadqiqot ishlari olib borilgan. Kasb ta'limining shakllanish va rivojlanish jarayoni, qonuniyatlari va tendensiyalari, bo'lajak mutaxassislarni kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlash muammolari R.X.Djurayev<sup>1</sup>, Sh.E.Qurbonov, P.T.Magzumov, U.N. Nishonaliyev, A.R.Xodjabayev, X.F.Rashidov, U.I.Inoyatov, N.A.Muslimov, Sh.S.Sharipov, S.Yu.Ashurova, M.B.Urazova, N.Sh.Shodiyev, Q.T.Olimov, N.N. Karimova, B.A. Nazarova va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan. Ta'limda axborot texnologiyalari va o'qitishning zamonaviy metodik vositalaridan foydalanishning nazariy va amaliy asoslari A.A.Abduqodirov, U.Sh.Begimqulov, U.Yuldashev, N.I.Tayloqov, J.A.Xamidov, O.X.Turakulov, J.Turmatov, A.Jo'rayev va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

---

<sup>1</sup> Djo'raev R.X. Ta'limda interfaol texnologiyalar.–Toshkent, 2010. 87b, Qurbonov. Sh.E., Seytxalilov E. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi: pedagogik ilmiy tadqiqot muammolari va yo'nalishlari. – T.: Fan, 1999 y. – 189 b, Нишоналиев У.Н. Формирование личности учителя трудового обучения: проблемы и перспективы. –Т.: Фан, 1990. – 86 стр. Ходжабаев А.Р. Научно-педагогические основы учебно-методического комплекса подготовки учителя труда: Автореф. дис... док. пед. наук. – Ташкент, 1992. – 42 с., Muslimov N.A. Elektron darslik yaratish metodik tamoyillari va texnologiyalari //Infocom.uz, 2004 y. – 62-66 b, Urazova M.B. Bo'lajak kasb ta'lim pedagogini loyihalash faoliyatiga tayyorlash texnologiyasini takomillashtirish: Pedagogika fan. Bo'yicha doktorlik (dsc) diss. Avtoreferati. – T.: 2015.-78 b., Olimov Q.T. Kasb ta'limi metodikasi. Mashg'ulotlik // "Fan va texnologiyalar" nashriyoti. - Toshkent, 2016. - 328 bet.

D.D.Sharipova<sup>2</sup>, N.Sh.Mannapova, S.Isломov, A.Isimova, F.A.Yuldashev, R.Haydarov va boshqalar jismoniy tarbiya orqali sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va pedagogik kompetensiyani rivojlantirish yo‘nalishida tadqiqotlar olib borgan.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari tayyorlashda xorijiy mamlakatlari olimlari V.K.Balsevich, A.N.Bleer, V.Yu.Volkov, Yu.D.Jeleznyak, V.V.Zaitseva, Ch.T.Ivankov, L.I.Lubysheva, D.G.Mindiashvili, P.K.Petrov, A.V.Samsonova, V.A.Taymazov, A.I.Fedorov, J.K.Xolodov va boshqalar tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Yuqoridagi keltirilganlarga ko‘ra, mamlakatimiz va xorijda bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga alohida e‘tibor berilayotganini ko‘ramiz. Ammo, axborotlashgan jamiyatning tezkorlik bilan rivojlanib borishi, kasbiy ta‘lim tashkilotlarida o‘qiyotgan o‘quvchilarning zamonaviy axborot texnologiya vositasi asosida tayyorlash, kasbiy kompetentligini rivojlantirish muammosi chuqur, har tomonlama o‘rganilmaganligini qayd etish mumkin.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi:** Dissertatsiya tadqiqoti Professional ta‘limni rivojlantirish institutining IL-5821081323-raqamli “Dual ta‘lim tizimida kadrlar tayyorlashning innovatsion ta‘lim texnologiyalarini ishlab chiqish” (2023-2025 yy.) mavzusidagi loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi:** kasbiy ta‘lim tashkilotlarida sog‘lom turmush tarzi va raqamli texnologiyalar uyg‘unligi orqali kasbiy kompetensiyani rivojlantirish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

kasbiy ta‘lim tashkilotlarida sport mahoratini oshirish fanini sog‘lom turmush tarzi va raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish orqali o‘quvchilarda kasbiy tayyorgarlik, rag‘bat va sog‘liqni rivojlantirish shart-sharoitlarini hamda ularning nazariy asoslarini ishlab chiqish;

Kasbiy ta‘limda jismoniy tarbiyani sog‘lom turmush tarzi konsepsiyasi bilan uyg‘unlashtirish modeli va uning pedagogik asoslarini tahlil qilish;

o‘quvchilarning kasbiy tayyorgarligida nazariy ta‘lim jarayonlari bilan sportga oid amaliy mashg‘ulotlarni integratsiyalash asosida amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish, jamoaviy hamkorlikni rivojlantirish va shaxsiy mas‘uliyat hissini oshirishga yo‘naltirilgan uslublarni metodik jihatdan takomillashtirish;

jismoniy tarbiya, raqamli texnologiyalar va ta‘lim hamda sport integratsiyasining o‘zaro ta‘siri natijasida o‘quvchilarda shakllanayotgan didaktik, tarbiyaviy va kasbiy kompetensiya ko‘rsatkichlarini tajriba-sinov jarayonlari asosida pedagogik va statistik jihatdan tahlil qilish, shuningdek, ushbu natijalarga tayangan holda amaliyot uchun ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti:** kasbiy ta‘lim tashkilotlarida sog‘lom turmush tarzi va

---

<sup>2</sup> Шарипова Д.Д. Научно-педагогические основы гигиенического воспитания школьников : На примере школ Узбекистана : диссертация ... доктора педагогических наук в форме научного доклада : 13.00.01. - Ташкент, 1990. - 44 с

raqamli texnologiyalar uyg'unligi orqali kasbiy kompetensiyani rivojlantirish jarayoni.

**Tadqiqotning predmeti:** kasbiy ta'lim tashkilotlarida sog'lom turmush tarzi va raqamli texnologiyalar uyg'unligi orqali kasbiy kompetensiyani rivojlantirish mazmuni, shakl, metodlari va vositalari.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

kasbiy ta'lim tashkilotlarida sport mahoratini oshirish fanini sog'lom turmush tarzi g'oyalari va raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish orqali o'quvchilarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi innovatsion pedagogik shart-sharoitlar tizimi aniqlanib, ularning nazariy-metodik asoslari ishlab chiqilgan;

kasbiy ta'lim tashkilotlarida jismoniy tarbiyani sog'lom turmush tarzi konsepsiyasi bilan uyg'unlashtirish bo'yicha model taklif etilib, unda jismoniy faollik natijasida shakllanadigan kasbiy ko'nikmalar va salomatlik ko'rsatkichlarining pedagogik asoslari tahlil etilgan;

ta'lim (nazariy) bilan sport (amaliy) integratsiyasining pedagogik mexanizmlari keng qamrovda ochib berilgan, bu jarayonda o'quvchilarda kasbiy motivatsiya, jamoaviy fikrlash va salohiyatni oshirish (Team building, Flipped classroom, Asynchronous training, Dalton rejasi) ta'lim metodlari asosda takomillashtirilgan;

jismoniy tarbiya, raqamli texnologiyalar va ta'lim-sport uyg'unligining o'zaro ta'siri asosida tajriba-sinov natijalari ilmiy-nazariy jihatdan statistik tarzda umumlashtirilib, kasbiy tayyorgarlik jarayonida ham salomatlik, ham amaliy kompetensiya rivojini ta'minlovchi innovatsion yondashuvlar bo'yicha aniq metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Raqamli texnologiyalar asosida kadrlarini tayyorlash samaradorligini oshirish va bo'lajak mutaxassisliklarni kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish va ta'lim jarayonini takomillashtirish; tadqiqotning mazmuni va asosiy yo'nalishlarini nazariy jihatdan asoslash bo'yicha mahalliy va xorijiy manbalarni qiyosiy-tahliliy o'rganish; vazifalarni aniq belgilash; amaliyotda tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, tadqiqot obyekti va predmetining maqsadga muvofiqligini aniqlash bilan belgilanadi.

“Sport o'yinlari” nomli darslik hamda “Jismoniy tarbiya va sport” nomli o'quv qo'llanmasidan kasbiy ta'lim tashkilotlarining o'quv jarayonida foydalanilmoqda.

Kasbiy ta'lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya va sport yo'nalishi o'quvchilarini kasbiy tayyorlash sifatini oshirishga qaratilgan 36 soatga mo'ljallangan “Bo'lajak mutaxassislarni kasbiy tayyorlash va ularning kompetentligini rivojlantirish” o'quv dasturi kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchilarining mustaqil o'zlashtirishda foydalanilgan.

O'qituvchilar hamda o'quvchilar ta'lim samaradorligini aniqlashga va o'quvchilarning kasbiy rivojlantirishga qaratilgan raqamli texnologiya o'quv bazasidan unumli foydalanilmoqda.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi.** Xorijda hamda OAK ro'yxatidagi nashrlarda bosilgan maqolalar, xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy konferensiya materiallari, ilmiy-metodik takliflarning amaliyotga tadbiiq etilgani; tadqiqot vazifalariga mos keluvchi tadqiqot metodlarining qo'llanilganligi; shuningdek, matematik-statistik qayta ishlov berilganligi va tegishli idoralar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, taklif etilayotgan model, darslik, o'quv-qo'llanmalar raqamli texnologiyaning asosiy xizmatlaridan foydalangan holda ishlab chiqilganligi, kasbiy ta'lim tashkilotlarida kadrlar tayyorlash sifati va samaradorligini oshirishi, tizimli yondashuv asosida o'quv jarayonini tashkil etishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, metodik tavsiyalar, ishlab chiqilgan pedagogik model, o'quv-uslubiy ta'minot va raqamli texnologiyalarga asoslangan platformalar kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchilarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, jismoniy faollikni oshirish, shuningdek, raqamli vositalardan foydalangan holda kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish samaradorligini oshirishga xizmat qilganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Raqamli texnologiyalar muhitini yaratish orqali bo'lajak mutaxassislarni kasbiy rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqot natijalari asosida:

mustaqil ta'lim o'quv jarayoniga yo'naltirilgan raqamli ta'lim kontentlari hamda telekonferensiya texnologiyalari imkoniyatlaridan integrativ foydalanishga doir takliflardan IL-58-21081323 raqamli-Dual ta'lim tizimida kadrlar tayyorlashning innovatsion ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish mavzusidagi innovatsion loyiha bajarishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 20-dekabrda 02/01-01-151-son ma'lumotnomasi). Mazkur takliflar, kasbiy ta'lim tashkilotlari jismoniy tarbiya va sport yo'nalishi o'quvchilarining axborot texnologiyalar asosida mustaqil o'zlashtirishga tayyorgarligini takomillashtirishga xizmat qilgan;

HTML/CSS, va PHP (Laravel) asosida yaratilgan multimediali o'qitish platformasi imkoniyatlaridan foydalanish orqali bo'lajak mutaxassislar va o'qituvchining AKT bo'yicha kompetentligini rivojlantirishga oid ilmiy va metodik ishlanmalaridan bitiruvchilarning AKT bo'yicha kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan variativ o'quv dasturi mavzulari mazmunini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 20-dekabrda 02/01-01-151-son ma'lumotnomasi). Mazkur o'quv kursi bitiruvchilarning raqamli texnologiyalar orqali kasbiy kompetentligini oshirish metodikasini takomillashtirishga xizmat qiladi;

raqamli texnologiyalar muhitida kasbiy o'sishni ta'minlovchi ko'rsatkichlar (jumladan, innovatsion pedagogik resurslar, test dasturlari, elektron materiallar hamda amaliy dasturlarni ishlab chiqish ko'nikmalari) asosida o'qituvchilar va bitiruvchilarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sohasidagi

kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan "Bo'lajak mutaxassislarni kasbiy tayyorlash va ularning kompetentligini rivojlantirish" nomli maxsus o'quv dasturi ishlab chiqilgan.

Ushbu dastur doirasida raqamli ta'limning metodik ta'minoti ishlab chiqilib, "Infokommunikatsion texnologiyalardan foydalangan holda bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash" (Jismoniy tarbiya yo'nalishi misolida) nomli o'quv platformasi (DGU 15403 raqamli guvohnoma bilan tasdiqlangan) hamda "Sport o'yinlari" darsligi yaratildi va amaliyotga joriy etilgan. (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 20-dekabrda 02/01-01-151-son ma'lumotnomasi). Mazkur o'quv va metodik ta'minot o'quv jarayoni sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 22 ta ilmiy-metodik ish, jumladan, 1 ta darslik, 2 ta o'quv-qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop yetish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, shundan 5 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnalda chop etilgan, O'zbekiston Respublikasi intellektual mulk agentligidan 1 ta mualliflik guvohnomasi olingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish, uch bob, 120 sahifa matn, rasmlar, jadvallar, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan; fan va texnologiyalarning ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti belgilangan, tadqiqotning usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning "**Kasbiy ta'limda sog'lom turmush tarzi va raqamli texnologiyalar uyg'unligining ilmiy nazariy-asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida tadqiqot muammosiga doir ilmiy nazariy adabiyotlarning qiyosiy tahlili asosida o'quvchilarni kasbiy tayyorlashning ilmiy-pedagogik asoslari, konseptual yondashuvlari, ta'limni modernizatsiyalash sharoitida kasbiy rivojlantirishga qo'yilayotgan zamonaviy talablar tahlili keltirilgan, bo'lajak mutaxassislarni kasbiy tayyorlashga ta'sir etuvchi omillar (faoliyatli yondashuv, kompetentli yondashuv va shaxsga yo'naltirilgan yondashuv)ning malaka talablari bilan o'zaro integrativ aloqadorligi yoritilgan.

Nazariy manbalar mazmuni bilan tanishish shuni ko'rsatdiki, mehnat bozorining rivojlanishi va real ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda,

kasbiy ta'lim tashkilotlarida raqamli texnologiyalardan foydalanib bo'lajak mutaxassislarni kasbga tayyorlash hamda jismoniy tarbiyani kasbiy faoliyat bilan uyg'unlashtirish dolzarb va ustuvor vazifalardan biri hisoblanmoqda.

Sog'lom turmush tarzining tarkibiy qismlaridan biri sifatida jismoniy tarbiya qadimdan turli omillar (harakatli o'yinlar, jismoniy mashqlar, musobaqalar, sayohatlar, sog'lomlashtiruvchi tabiiy vositalar – suv, havo, quyosh, shaxsiy gigiyena va boshqalar) orqali jamiyat hayotida faol qo'llanib kelingan. Bunga tarixiy va madaniy manbalardagi ma'lumotlar dalil bo'la oladi. Jumladan, "Avesto", "To'maris", "Alpomish", "Go'ro'g'li", "Qirq qiz" kabi qadimiy yozma manbalar jismoniy tarbiyaning ildizlari chuqur tarixga ega ekanini ko'rsatadi. Bunday manbalar nafaqat O'zbekistonda, balki boshqa ko'plab davlatlarda ham uchraydi va ularning ilmiy-nazariy jihatlari bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

Soha mutaxassislarning ta'kidlashicha bugungi kunda axborotni qo'llab-quvvatlashning an'anaviy shakllari mutlaqo yetarli emas, chunki amaliy natijalarga erishish va eng qisqa vaqt ichida dolzarb muammolarni hal qilish uchun tashkiliy, ilmiy, texnik va iqtisodiy kuch va vositalarni birlashtirish zarur. Shu bois, axborot tizimlari va jarayonlarining qo'llanilishini ishlab chiqish va tashkil etish, boshqaruvning turli darajalarida qarorlar qabul qilishda axborot texnologiyalari va tizimlaridan foydalanishga yangi yondashuvlar talab etiladi. Shuningdek, jismoniy tarbiya va sport kasbida raqamli texnologiya vositalaridan foydalanish quyidagilarni ta'minlaydi (1-rasm):



**1-rasm. Jismoniy tarbiya va sport yo'nalishida raqamli texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari**

Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining asosiy maqsadlaridan biri — o'quvchilarning sog'lig'ini asrash va mustahkamlashdir. Bunda sog'lom turmush tarzi yetakchi omil sifatida e'tirof etilib, uning asosiy tamoyillarini yoshlik davrida egallash katta yoshdagi insonlarning hayot tarzi shakllanishida muhim rol o'ynaydi.

Mazkur yo'nalishda S.V.Guryev an'anaviy jismoniy tarbiya usullarini zamonaviy axborot texnologiyalari bilan uyg'unlashtirib, kompyuter texnikasi asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda sog'lom hayot tarzini tarkib toptirish

bo'yicha metodologik yondashuvni taklif etadi. Tadqiqotchining axborot vositalari o'quv jarayonini yangi, yuqori darajada tashkil etish, o'quv materialini to'liqroq o'zlashtirishni ta'minlash va shu bilan inson shaxsini rivojlantirishga hissa qo'shish imkonini beradi, degan fikri maqsadga muvofiq. Bundan tashqari, sport mashqlarini modellashtirishda matematik usullardan foydalanish, kerakli yechimni tezroq va samaraliroq topish imkonini beradi.

Raqamli texnologiyalar sportchining bilim sohasini avtomatlashtirishdan tashqari, ularni kasbga tayyorlash va jismoniy tarbiya o'qituvchilari, murabbiylar malakasini oshirish bo'yicha o'quv jarayonlarini axborot-metodik ta'minlashni va avtomatlashtirishni ta'minlaydi hamda sport hakamlari, boshqaruv xodimlari va boshqalarni turli musobaqalar va sport tadbirlari haqidagi so'ngi yangiliklardan xabardor qilish imkoniyatini beradi. Shuningdek, sport tadbirlaridan reportajlar haqida audio va video materiallar ko'rinishida ma'lumotlarni to'plash va taqdim etish, televideniya va radio muhbirlari, ommaviy axborot vositalari muhbirlari bilan sinflarda va sport maydonchalarida konferensiyalar va brifinglar o'tkazish imkoniyatini ta'minlaydi. Shu bilan birga, internet global tarmog'ida musobaqalar taqdim etish va raqobat veb-saytlarini yaratish imkoniyati mavjud.

Shunday qilib, raqamli texnologiyaning maqsadi:

1. Kerakli ma'lumotlarni to'plash va qayta ishlash, materiallarni yaratish jarayoni, turli sport tashkilotlari shu jumladan xorijiy tashkilotlar bilan axborot o'zaro aloqasi jarayonlarini avtomatlashtirish orqali sport industriyasini boshqarish samaradorligini oshirish.

2. Jismoniy tarbiya va sport yo'nalishi bo'yicha mutaxassislar tayyorlashni, sportning turlarini hisobga olgan holda sportchilarni tayyorlash tizimidagi o'quv-mashq jarayonini, shuningdek jismoniy tarbiya yo'riqchilari, murabbiylar, sport hakamlari malakasini oshirishni axborot-metodik ta'minlash; va boshqalar.

3. Turli sport tadbirlarini axborot bilan ta'minlash.

Jahon miqyosida bo'lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini tayyorlashda raqamli texnologiyalardan foydalanish masalasida ilmiy tadqiqot ishlari, barcha bilim sohalarida o'quv kurslari hamda darsliklar ko'rinishidagi ochiq ta'lim manbalarini taqdim etuvchi elektron fondlar yaratish va amaliyotga joriy etish yuzasidan ko'plab ilmiy tadqiqotlar yetakchi ta'lim muassasalari tomonidan olib borilmoqda.

Shunday qilib, tadqiqot davomida xorijda hamda respublikamizda jismoniy tarbiya va sport yo'nalishi bo'yicha bitiruvchilarning kelajakdagi kasbiy faoliyatida raqamli texnologiya vositalaridan foydalanish bo'yicha yetarli darajada ilmiy tadqiqot ishlari tayyorlanmaganligini ko'rishimiz mumkin.

Yuqoridagi tahlillarga hamda olimlarning ilmiy izlanishlariga asoslanib, biz ishchi ta'rifni quyidagi keltirib o'tamiz. Bizning fikrimizcha – Sog'lom turmush tarzi va raqamli texnologiyalarni uyg'unlashtirish mexanizmi-jismoniy sifatlar, kasbiy faoliyatga bo'lgan munosabati, unda zarurat va qiziqishi, intilishlari, faoliyatdan maqsadi, hamda amalda qo'llashidan iborat.

Dissertatsiya ishining **“Raqamli texnologiyalar asosida sog'lom turmush tarzi va kasbiy faoliyat uyg'unligini ta'minlash metodikasi”** deb nomlangan

ikkinchi bobida Sogʻlom turmush tarzi va kasbiy kompetensiyaning uygʻunligini taʼminlovchi metodik model, kasbiy taʼlim tashkilotlarida boʻlajak mutaxassislarni raqamli texnologiyalardan foydalangan holda kasbiy tayyorlashning didaktik taʼminoti, kasbiy faoliyatda sogʻlom hayot prinsiplarini qoʻllashni raqamli vositalar yordamida oʻrgatish metodikasi bayon etilgan.

Shu oʻrinda biz tomondan boʻlajak mutaxassislarni oʻqitish asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida raqamli texnologiya oʻquv-metodik taʼminotidan foydalanish orqali mutaxassis tayyorlashning tuzilma-modelini aniqlashga harakat qilindi. Taʼkidlash zarurki, “Sogʻlom turmush tarzi va raqamli kompetensiyaning uygʻunligini taʼminlovchi metodik model” tushunchasi turli olimlar tomonidan turlicha talqin qilingan. Koʻpchilik olimlar mutaxassis modeli deganda, muayyan ixtisoslik boʻyicha mutaxassisning umumlashtirilgan obrazi hisoblangan, oʻrganiladigan obyektning asosiy tavsifini aks ettiruvchi va bayon etuvchi oʻxshashlikni tushunishgan.

Oʻtgan 20 yil davomida oʻquv jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish boʻyicha sezilarli ijobiy tajriba toʻplandi. Raqamli texnologiyalar kasbiy kompetensiyani takomillashtirish uchun qimmatli va mazmunli salohiyatga ega ekanligi va oʻquvchining kasbiy rivojlanishiga hissa qoʻshishi isbotlandi. Biroq, tadqiqot natijalariga koʻra, boʻlajak mutaxassislarni tayyorlash jarayonida pedagogik loyihalarni amalga oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalari oʻqituvchilar amaliyotida yetarli darajada qoʻllanilmayapti. Ayniqsa, jismoniy tarbiya va sport yoʻnalishida raqamli vositalardan sogʻlom turmush tarzini targʻib qilish va uni amaliyotga integratsiya qilish imkoniyatlari yetarlicha ishga solinmagan. Bu esa, kelajak mutaxassislarida sogʻlom turmush tarzini shakllantirishga xizmat qiluvchi taʼlim mazmuni va metodlarini yanada takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Biz tomondan olib borilgan tadqiqot ishi davomida sogʻlom turmush tarzi va raqamli kompetensiyaning uygʻunligini taʼminlovchi metodik modelini ishlab chiqishni **3 ta bosqichga** ajratdik.

**Birinchi bosqichda** quyidagilar inobatga olindi:

oʻquv jarayonida raqamli axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish sharoitida oʻquvchilarning kasbiy tayyorligi uchun zarur boʻlgan pedagogik omillarni aniqlash;

oʻquvchilarning taʼlimiy faoliyatida dasturiy taʼminotdan foydalanish, texnik hamda metodik vositalarni oʻzlashtirish darajasini baholash;


oʻquvchilarga yoʻnaltirilgan metodikaga asoslangan “Informatika”, diagnostik, amaliy, tuzatuvchi oʻqitish usullarini bosqichma-bosqich joriy etilishi;

axborot faoliyati jarayonida mutaxassisning kasbiy rivojlanishi uchun oʻquvchilarning ijobiy motivatsiyasini rivojlantirilishini taʼminlash.

Yuqoridagi birinchi taʼlim bosqichida kasbiy taʼlim tashkiloti oʻquvchilari oʻz kasbiy mahoratini oshirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish jarayonida quyidagi kompetensiyalar rivojlanadi: tayyorgarlik, mazmun-operatsion, kasbiy bilimlarni sintez qilish qobiliyati; integral tizimlar va

texnik jarayonlarni modellashtirish, funksiyalarni aniqlash va bu jarayonlarni tuzish; samarali-baholovchi.


**Ikkinchi bosqich.** AKT vositalaridan foydalanish sohasida jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini tayyorlash mazmunini shakllantirishda e'tiborga olinishi kerak bo'lgan asosiy yo'nalishlar aniqlandi (2-rasm):



**2-rasm. Jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini tayyorlashda AKT vositalaridan foydalanish mazmunini shakllantirishdagi asosiy yo'nalishlar**

**Uchinchi bosqich.** Jismoniy tarbiya va sport yo'nalishi o'quvchilarini tayyorlash jarayonida mazmuni hisobga olinishi kerak bo'lgan axborot faoliyatining asosiy tarkibiy qismlarini (loyihaviy, konstruktiv, tashkiliy, kommunikativ, diagnostik) taqdim etamiz.

O'quvchilarning kasbiy rivojlanishining har bir keyingi bosqichi avvalgisiga tayanadi va shu bilan o'quvchilarning kasbiy tayyorgarlikning butun jarayoni davomida maqsadli kasbiy rivojlanishini ta'minlaydi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda biz dastlab, raqamli texnologiyalardan foydalangan holda bo'lajak mutaxassislarini kasbiy tayyorlash modelini keltirib o'tamiz (3-rasmga qarang) va uni qo'llash asosida jismoniy tarbiya va sport yo'nalishi o'quvchilarini kasbiy tayyorlash mexanizmini takomillashtirishga erishamiz.



**3-rasm. Sog'lom turmush tarzi va kasbiy kompetensiyaning uyg'unligini ta'minlovchi metodik model**

Raqamli texnologiyalardan foydalangan holda bo'lajak mutaxassislarni kasbga tayyorlash modeli maqsad, yondashuvlar (tizim-integral, faoliyatga asoslangan, texnologik), tamoyillarni (sub'ektivlik, hamkorlik, individuallashtirish, yaxlitlik, modullik) o'z ichiga oladi. O'rganilayotgan jarayonni tashkil etish: bosqichlari, (izlanuvchi-ta'kidlovchi, shakllantiruvchi, yakuniy), pedagogik shartlar; mezonlari (kognitiv, faoliyatga asoslangan, motivatsion) va ularning shakllanish darajalari (yuqori, o'rta, quyi), (natija) sog'lom turmush tarzi va raqamli texnologiyalar uyg'unligi orqali kasbiy kompetensiyasi rivojlangan mutaxassis.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish jarayonida o'quvchilarning **kasbiy rivojlanishi mezonlari tizimiga quyidagilar kiradi:** kognitiv, motivatsion va faoliyatga asoslangan.


**Kognitiv mezonlar** quyidagilarni o'z ichiga oladi: kognitiv va kasbiy qiziqishlarning o'zaro mosligi; o'rganilayotgan fanlar bo'yicha bilimlarni egallashga bo'lgan barqaror ehtiyoj; umumiy kasbiy bilimlarni oshirishga intilish; tanlangan kasbiy faoliyat mazmuni to'g'risida yetarli ma'lumotga ega bo'lish; kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan fazilatlar haqida bilimga ega bo'lish hamda shaxsiy fazilatlarining tanlangan kasb talablariga mos kelishi.

**Motivatsion mezon**-bu o'quvchilarning tanlagan kasbga nisbatan ijobiy munosabati, o'quv jarayoniga ongli va faol yondashuvi, erishilgan natijalardan qoniqish hissi, kasbiy tayyorgarlikka mas'uliyat bilan qarashi, doimiy ravishda o'z ustida ishlashga intilishi hamda mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lish istagini ifodalaydi.

**Faoliyat mezonining** ko'rsatkichlari orasida biz ko'nikmalarni aniqladik: o'quv va axborot faoliyatining adekvat maqsadlari, mazmuni va usullarini tanlash; bilimlarni sintez qilish, uni bir tarmoqdan boshqasiga o'tkazish, jarayonlarni tahlil qilish va birlashtirish.

O'quvchilarning kasbiy tayyorgarligi bo'yicha ta'lim muassasasi faoliyatini tashkil etish quyidagilarni o'z ichiga oladi: Kasbiy ta'lim tashkilotlarining o'quv jarayonini axborotlashtirish sharoitida bo'lajak mutaxassisning kasbiy tayyorgarlikning ishlab chiqilgan tarkibiy-funksional modelini amalga oshirish; bo'lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorlash uchun asos bo'lgan **"Bo'lajak mutaxassislarni kasbiy tayyorlash va ularning kompetentligini rivojlantirish"** o'quv kursini ishlab chiqish va undan foydalanish, ushbu kursini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, hamkorlikda o'qitish, loyiha usuli va ko'p bosqichli o'rganish.

Shu bilan birga mazkur o'quv dasturini o'qitish maqsadida uning raqamli ta'lim kontentlari ishlab chiqildi (4-rasm). Axborot texnologiyalari asosida ishlab chiqilgan mazkur dastur ta'minot bo'lajak mutaxassislar uchun mustaqil ta'limga yo'naltirilgan.



#### **4-rasm. “Bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy tayyorlash va ularning kompetentligini rivojlantirish” o‘quv kursining raqamli ta’lim kontenti bo‘limlari.**

Ta’lim jarayonida raqamli qurilmalar, dasturiy vositalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib, bo‘lajak mutaxassislarning nazariy bilimlari, amaliy ko‘nikmalari, tahlil va muammolarni yechish qobiliyatlari, shuningdek, sport faoliyati samaradorligini oshirish uchun zarur kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishni ta’minlovchi texnologik tizim bu raqamli texnologiyalar hisoblanadi.

Ushbu ta’lim formatini loyihalash ssenariylari o‘quvchilarning bevosita o‘yin jarayoniga qo‘shilishi bilan tavsiflanadi. Raqamli texnologiyalar yordamida o‘rganish o‘yin shaklini kiritish yuqori ta’lim natijalariga erishishga yordam beradi.

O‘quvchilarning bilim olish ehtiyojlari va imkoniyatlarini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, mustaqil ta’limda samarali platformalardan foydalanish eng keng tarqalgan amaliyotlardan biri hisoblanadi.

O‘quvchilar ushbu turdagi o‘yin faoliyatining jozibali tomoni sifatida mantiq, e’tibor, aqlning rivojlanishiga hissa qo‘shadi.

O‘quvchilarning ta’lim motivatsiyasini oshirish va guruh tadqiqot faoliyatini tashkil etish hamda ularni aniqlash:

O‘quvchilarning o‘zaro aloqasi bo‘lgan qismi yoki barcha ma’lumotlar loyiha zanjiridan kelib chiqqan holda, ehtiyojga yo‘naltirilgan faoliyat;

Olib borilgan turli izlanishlar ko‘rsatilishicha, o‘quvchilarni tayyorlashda axborot texnologiya vositalarini yaratish, ularni takomillashtirish muammosi tadbiiq etilmagan.

Tadqiqotimiz doirasida dars mashg‘ulotlari o‘quvchilarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish uchun biz tomondan qo‘llanilgan “Flipped

Classroom”, “Asynchronous training”, “Dalton rejasi”, “Team Building” innovatsion ta’lim texnologiyalari asosida o‘tkazildi.

### **Flipped Classroom (Teskari sinf)**

Flipped Classroom – bu an’anaviy dars jarayonini teskari qilishga asoslangan innovatsion yondashuv bo‘lib, unda o‘quvchilarga nazariy materiallar (ma’ruzalar, tushuntirishlar) darsdan oldin mustaqil o‘rganish uchun raqamli vositalar orqali taqdim etiladi. Dars jarayonida esa vaqt asosan amaliy mashg‘ulotlar, muhokama, tahlil va qo‘llashga yo‘naltiriladi.


**Asynchronous training** - bu o‘quvchilarning bir xil materialni turli vaqt va joylarda o‘rganishi haqidagi g‘oya. Bu atama ko‘pincha onlayn ta’lim bilan bog‘liq bo‘lib, unda o‘quvchilar o‘qish, topshiriq yoki faoliyatni o‘z tezligida va o‘zlari tanlagan vaqtda bajarishadi. Bu yondashuv, ayniqsa, o‘quvchilar turli vaqt zonalarida yashasa yoki texnologiyadan foydalanish imkoniyati cheklangan bo‘lsa foydali bo‘ladi.

**“Team Building”- (Jamoatuzish)** metodi - bu jamoa ichidagi ishonch, hamkorlik va o‘zaro tushunishni rivojlantirishga qaratilgan usul bo‘lib, guruh a‘zolarining birgalikda ishlash qobiliyatini oshirishga yordam beradi. Ushbu metod odatda o‘yinlar, musobaqalar va muammolarni jamoaviy hal qilish usullari orqali amalga oshiriladi.

Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlarida ushbu metod qo‘llanganda quyidagi ijobiy natijalarga erishish mumkin: jamoaviy ishlashni yaxshilaydi, sportchilarning ruhiy barqarorligini oshiradi, rahbarlik va strategik fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi, o‘quvchilarda motivatsiyani kuchaytiradi, hamda jismoniy faollikni yanada qiziqarli va samarali qiladi.

**Dalton rejasi** - bu XX asrning boshlarida amerikalik pedagog Yelena Parkhurst tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, u o‘quv jarayonini individual yondashuv asosida tashkil etishni maqsad qilgan. Mazkur tizim an’anaviy sinf darslari o‘rniga o‘quvchiga mustaqil ishlash, o‘z qobiliyatiga mos sur’atda rivojlanish va mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish imkonini beradi.

Quyida Dalton rejasini jismoniy tarbiya darsida qanday qo‘llash mumkinligi haqida qadam-baqadam yondashuv keltirib o‘tamiz (5-rasm):



### **5-rasm. Dalton rejasini dars mashg‘ulotlarida qo‘llash**

O‘qituvchi Dalton rejasiga muvofiq, yo‘l-yo‘riq beruvchi va kuzatuvchi sifatida ishtirok etadi. U o‘quvchilarga yordam beradi, lekin ularning mustaqil

ishlashiga imkon yaratadi. O'qituvchi o'quvchilarning qiyinchiliklarga duch kelganida yoki qo'shimcha maslahat kerak bo'lganda yordam beradi.

Bu vositalar bo'lajak mutaxassislarni zamonaviy kasbiy faoliyatga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Ular ta'lim jarayonini interaktiv, moslashuvchan va samarali qiladi, o'quvchilarning raqamli savodxonligini oshiradi va ularni bozor talablariga javob beradigan malakali mutaxassislar sifatida tayyorlaydi.

Tadqiqot ishining **“Ta'lim va sport integratsiyasi asosida kasbiy faoliyatni rivojlantirish bo'yicha tajriba-sinov ishlari va uning natijalari”** deb nomlangan uchinchi bobida pedagogik tajriba sinovni tashkil etish, o'tkazish, o'quvchilar uchun tashkil etilgan 36 soatlik maxsus o'quv kursi samaradorligi, baxolash mezonlari va ularning tahliliy natijalari keltirilgan.

Tadqiqot davrida bitiruvchilarni, shu jumladan kasbiy ta'limi tashkilotlarida o'quvchilarni tayyorlash jarayonining nazariy asoslari asosida tajriba-sinov ishlarni tashkil etishga alohida e'tibor qaratildi. Tajriba sinov ishlarini tashkil etishning maqsadi bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashga imkon beradigan pedagogik sharoit va vositalardan samarali foydalanish darajasini aniqlashdir.

